

**MAHALLABAY ISHLASH VA TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI  
LAOG (LOYIHANI AMALGA OSHIRISH GURUHI)NING MONITORING VA  
BAHOLASH BO‘YICHA MUTAXASSISI LAVOZIMIGA OCHIQ TANLOV E’LON  
QILADI**

**LAVOZIM MAJBURIYATLARI**

1. Pudratchilar faoliyatiga oid har kunlik amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida zarur ma’lumotlarni monitoring uchun olish.
2. LAOG rahbari va konsulantlar bilan hamkorlikda asosiy ko‘rsatkichlarning har oy monitoringini ta’minalash va loyihaning amalga oshirilishini baholash.
3. Loyihani amalga oshirishdagi muammolarni aniqlash.
4. Pudratchilar tomonidan tarmoq jadvalining bajarilishini nazorat qilish.
5. LAOG rahbari bilan muammoli masalalarni bartaraf etish choralarini ko‘rish uchun choratadbirlarni ishlab chiqish.
6. Pudratchilar tomonidan shartnomalarning samarali bajarilishini hisobga olish va monitoringini olib borish.
7. Muammoli masalalar bo‘yicha o‘z vaqtida LAOG rahbarini xabardor qilish va takliflar kiritish.
8. Loyiha konsulantlari, pudratchilar va boshqa xodimlar tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarish bo‘yicha hisobotlarni olish, loyiha mutaxassislari tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni tahlil qilish, Xalqaro moliya instituti (XMI)ga va tegishli davlat organlariga muntazam yuborilib borilishini ta’minalash.
9. Pudratchilarning (uning tarkibiy bo‘linmalarining) o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida aniqlangan ishlab chiqarish faoliyatidagi kamchiliklar to‘g‘risida loyiha rahbarini xabardor qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish.
10. Loyihani amalga oshirishning borishi to‘g‘risidagi oylik, choraklik, yarim yillik va yillik hisobotlarni to‘plash, tayyorlash, tegishli vazirliklar, idoralar, shuningdek, XMIda taqdim etilishini ta’minalash.
11. Loyiha samaradorligini baholash uchun belgilangan ko‘rsatkichlar va parametrlarning bajarilishini oraliq monitoring qilish.
12. Mablag‘larni o‘zlashtirishning prognoz parametrlarini aniqlash bo‘yicha ko‘rsatmalarni tayyorlash.
13. Loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va loyiha rahbariyatiga keyingi qarorlar uchun takliflar kiritish.
14. Tegishli tashkilotlar uchun hisobotlar, loyihaning borishi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va loyiha rahbari bilan muvofiqlashtirish.
15. Har yarim yillik ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar asosida tahlillar o‘tkazish.

**QO‘YILADIGAN TALABLAR**

Iqtisodiyot, moliya, menejment, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti yoki injiniring yo‘nalishlari bo‘yicha oliv ma’lumotga ega va tegishli sohada kamida 3 yillik tajribaga ega bo‘lishi, jamoada ishslash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishda amaliy, ijodiy va g‘ayratli yondashuvga ega bo‘lishi lozim.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi tajribaga ega bo‘lishiga ustunlik beriladi.

Xalqaro moliya institutlari bilan o‘zaro hamkorlik tajribasiga ega bo‘lishiga ustunlik beriladi.  
Yuqori kompyuter ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.  
Bundan tashqari texnik ingliz tilini bilishi talab qilinadi.

## ISH SHAROITLARI

**Ish kunlari:** dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

**Ish vaqtি:** 09:00 dan 18:00 gacha.

**Ish joyi:** Toshkent shahri.

## TASHKILOT TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Qoratosh ko‘chasi 1-uy, 10-qavat.

**Telefon raqam:** +998712386933

**Elektron manzil:** [fcd.agency@mineconomy.uz](mailto:fcd.agency@mineconomy.uz) va [sredp.ade@gmail.com](mailto:sredp.ade@gmail.com)

**Qo‘srimcha ma’lumot:** LAOG (Loyihani amalga oshirish guruhi) Xalqaro moliya instituti ishtirokida 2022–2026-yillar davomida respublikamizda qishloq tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihani amalga oshirish uchun tashkil qilinadi.

*Ma’lumotnomangiz (obyektivka, rezyume, CV)ni siz talabgor bo‘lgan lavozimni aniq ko‘rsatgan holda yuqorida keltirilgan elektron manzillarga yuborishingizni so‘raymiz.*